

**RIVOJLANIB BORAYOTGAN ZAMONDA RAQAMLI
TEXNOLOGIYALAR RIVOJI VA ULARNING TA'IMDAGI O'RNI**

Sayfullayev Muhammad Ali Shuhratbek o'g'li

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti magistranti

Kamalova Mohigul Saitmurod qizi

Toshkent Axborot Texnologiyalari Universiteti magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tez fursatlarda rivojlanib borayotgan zamonda raqamli texnologiyalar va axborot texnologiyalarining jahonda balki yurtimizda o'z o'rniga ega bo'lib borishi va borgan sari ta'lim tizimiga kirishi unga ko'rsatayotgan ijobiy ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: raqamli texnologiyalar, axborot, raqamlashtirish, televideniya, pandemiya, rezidentlari.

Abstract: In this article, the positive impact of digital technologies and information technologies in the world, but also in our country, and their introduction into the education system is highlighted.

Key words: digital technologies, information, digitization, television, pandemic, residents.

Аннотация: В данной статье выделено положительное влияние стремительного развития цифровых технологий и информационных технологий в мире, а также в нашей стране, и их внедрение в систему образования.

Ключевые слова: цифровые технологии, информация, цифровизация, телевидение, пандемия, жители.

Hozirgi kunga kelib dunyoda ta’lim berish va ta’lim olish dolzARB masalalardan biriga aylandi. Chunki aynan sifatli ta’lim biz yashab turgan dunyonи turli muammolardan qutqarishda muhim rol o‘ynashi endi xech kimga sir emas. Shu tufayli davlatlar ta’lim sohasiga katta mablag‘ ajratmoqdalar. Bu borada mamlakatimizda ham salmoqli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Shunday bolishiga qaramay ta’lim tizimimizda hali o‘z yechimini kutayotgan qator masalalar borki ularni bartaraf etmasdan zamonaviy sifatli ta’lim haqida gapirib bolmaydi. Xususan axborot olish va foydalanish tezligi juda yiriklashgan hozirgi davrda, fikrimizcha, ta’lim tizimiga raqamli texnologiyalarni jalb etmasdan ta’lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalash mumkin emas. Bu o‘z navbatida ta’lim sifatining u qadar yuqori bo‘lishini ta’milamagan. O‘quvchilar turli qo‘sishimcha materiallarni o‘zlashtirish uchun ham yirik xajmdagi adabiyotlar va katta qappaygan sumkalarni ko‘tarib yurishga majbur bo‘lgan. Endilikda ta’limni raqamlashtirish jarayoni boshlandi. Bu esa ta’lim oluvchiga zamonaviy qulayliklar yaratib ta’lim olishni osonlashtirmoqda. Raqamli texnologiyalar joriy etilgan ta’lim tizimi vostilari rolini multimediyalar, kodoskop, kompyuter, noutbuk, internetga ulangan televizorlar, telefon liniyalar, smart doska, proyektorlar bajarib beradi. Bugun ular bilan ta’lim tizimining qurollantirilishi o‘quvchilarga dars mashg‘ulotlarini sifatli o‘tilishini ta’minlaydi. Bugungi pandemiya sharoiti ta’lim tizimida raqamli texnologiyalar qo’llanilishi yaxshi samara berishini isbotladi. Televideniya orqali berib borilgan onlayn darslar raqamli ta’limga o‘tishning bir debochasi sifatida qabul qilsak bo‘ladi. Bu jarayon o‘quvchiga uydan chiqmay turib ham ta’lim olish mumkinligini isbotlab berdi. Raqamli ta’limga o‘tishning boshqa afzallikkari togrisida ham fikr yuritadigan bo‘lsak ularga quyidagilarni kiritish o‘rinlidir. O‘quvchilar xohlagan joyida va xohlagan vaqtida ta’lim olish imkoniga ega boladi; - o‘quvchilar mutaxasis yetishmaydigan uzoq qishloqlarda ham fanlarni tanlash va uydan turib ta’lim olish imkiniga ega boladi; - internetdan axborot olish va undan foydalanish madaniyati shakllanadi; - ta’lim tizimini yangi bosqichga kotaradi; - vaqt va mablag sarfini keskin kamaytiradi; - “raqamli dunyo”da yo‘qolib qolmaslik va yaxshi ish topishda ustunliklarga ega bo‘ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etilishi mamlakat ta'lim tizimini modernizatsiya qilishda katta rol o'ynaydi. Zamonaviy ta'limni tashkil etish va ta'lim samaradorligini ortishiga xizmat qiladi. Shu bilan birga jaxon xamjamiyatida muhim o'rinnegallashimizni ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Abdurakhmanova, S. A. (2018). Developing Students' Intellectual Skills at Pedagogical Universities of Uzbekistan Republic based on Multimedia Technologies. www. auris-verlag. de.
2. Akhmedov, M.-U., & Kholmatova, F. (2021). FORMATION OF CREATIVE PROCESSES IN STUDENTS THROUGH TEACHING COMPOSITION IN FINE ARTS. Збірник наукових праць АОрОЗ. <https://doi.org/10.36074/logos-09.04.2021.v2.03>
3. Akhmedov Mukhomod-Umar Bakhridinovich. (2022). THE IMPORTANCE OF FOLK APPLIED ART IN THE FORMATION OF YOUTH CREATIVE ACTIVITY. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 3(02), 142156.
4. Bakiyeva, F. R., Primkulova, A. A., & Mirzahmedova, N. D. (2020). Smart And Development Of Modern Education.